

**QASHQADARYO VILOYATI CHIROQCHI TUMANIDA 2021-2023
YILLARDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH TAHLILI****HAQBERDIYEV MUHRIDDIN****SAIDRASULOV ELYOR****XUDOYSHUKUROV OYBEK***Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti**“Moliya” fakulteti 80k-guruh talabalari*

Annotatsiya: *Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tashabbusli budjetlashtirish jarayoni, uni amalga oshirish mexanizmi va moliyalashtirish amaliyoti yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *taklif berish, mahalliy budjet, mablag' ajratish, moderatsiya, ovoz berish, g'olib loyihani aniqlash, qoldiq mablag', moliyalashtirilgan tadbirlar.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda budjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, budjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri tegishli hudud mahalliy budjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar yo'nalishlarini belgilashda fuqarolar faol ishtirokini ta'minlanishidir. Xalqaro tajribadan ma'lumki, fuqarolarning budjet jarayonida ishtirok etishi shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashga, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, bu orqali davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirishga va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha “Harakatlar strategiyasi” da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi «Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3917-son Qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Qarorga muvofiq, 2019-yildan boshlab budjet mablag'larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokini ta'minlash maqsadida tuman (shahar)lar budjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutadigan mexanizm joriy etilgan edi.

Quyidagi 1-jadvalda Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida mazkur qaror ijrosi yuzasidan 2021-2023 yillarda tuman budjetidan yo'naltirilgan mablag'lar va mos ravishda yillar kesimida sarflangan mablag'lar miqdori bilan tanishib chiqishimiz mumkin.

1-jadval¹

**Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun
yo'naltirilgan mablag'lar miqdori**

(ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0,0	1 054 683,0	339 107,0
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	265 300,0	20 972 171,0	35 149 107,0
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1 600 000,0	20 169 000,0	34 790 000,0
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun hisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'lar	1 598 317,4	15 477 223,0	31 433 166,0
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	0,0	4 691 777,0	2 257 382,0
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'lar	1 053 000,0	1 857 854,0	2 257 382,0

Izoh: Yuqoridagi jadvaldan Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida 2021-yilda tashabbusli budjetlashtirish jarayoni bo'yicha tuman budjetida ortiqcha mablag'lar mavjud bo'lamaganligi sababli yil boshidagi qoldiq shakllanmaganining guvohi bo'lishimiz mumkin. 2022-yilga kelib yil boshiga qoldiq mablag'lar miqdori 1054683000 so'mni va 2023-yil boshiga 339107000 so'mni tashkil etganligi ko'rinadi. Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 2021-yilda 265300000 so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilga kelib 20972171000 so'mga yetgan. 2023-yilga kelib esa "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" hisobiga o'tkazilgan mablag'lar miqdori bazis davrga nisbatan 132,5 barobar ko'payib, 35149107000 so'mga yetgan.

2021-yilda "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 1600000000 so'mni tashkil etgan bo'lib, bundan 1598317380 so'm miqdordagi mablag'lar bajarilgan ishlar uchun hisobvaraqlardan moliyalashtirilgan, hisobvaraqlardagi qoldiq mablag'lar esa 0 so'mni tashkil etgan. 2022-2023 yillarda "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 20169000000 va 34790000000 so'mni tashkil etgan, shuningdek, bajarilgan ishlar uchun hisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'lar mos ravishda 15477223000 va 31433166000 so'mni tashkil etgan. Hisobvaraqlardagi qoldiq mablag'lar esa mos ravishda 4691777000 va

¹ <https://openbudget.uz/boards/reports/4?year=2021&kv=4>

2257382000 so'mlik ko'rsatkichni qayd etgan. Qolgan loyihalar sonini va yo'naltirilgan mablag'larni 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval²

**Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida
amalga oshirilgan tadbirlar**

(ming so'mda)

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag'		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jami		3	20	29	1 598 317,38	15 477 223	34 790 000
1.	Hududiy ichki yo'llar	1	17	25	449 753,4	14 198 218	30 690 000
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash		1			447 975	
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash						
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		1	3		12 000	3 100 000
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash						
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	1		1	398 563,98		1 000 000
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari						
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)						
9.	Boshqa tadbirlar	1	1		750 000	819 030	

Izoh: Jadvalni tahlil qilish jarayonida shuni ko'rishimiz mumkinki, 2021-yilda tumanda "Tashabbusli budjet" kesimida 3 ta loyihani moliyalashtirishga jami

² <https://openbudget.uz/api/v2/info/file/fe56e06d9dd2d6c5fa6c2254941e4b5e>

1598317380 so'm ajratilgan. Undan hududiy ichki yo'llar ta'miriga 449753400 so'm, ichimlik suvi ta'minotini yaxshilashga 398563980 so'm va boshqa tadbirlarni moliyalashtirishga 750000000 so'm miqdorda mablag'lar yo'naltirilgan.

2022-yilga kelib tumanda moliyalashtirilgan loyihalar soni 20 taga yetgan. Ulardan 17 tasi hududiy ichki yo'llar ta'miri bilan bog'liq loyihalar bo'lib, 14198218000 so'mga moliyalashtirilgan. Shuningdek, ushbu yilda tumanda umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash, sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash va boshqa tadbirlarni moliyalashtirishga mos ravishda 447975000 so'm, 12000000 so'm va 819030000 so'm miqdorda mablag'lar yo'naltirilgan.

2023-yilgi "Tashabbusli budjet" natijalari ham loyihalar soni va ajratilgan mablag'lar hajmining o'sishidagi o'ziga xos tendensiya bilan avvalgi yillardan farq qiladi. Bunda ushbu yilda tumanda moliyalashtirilgan loyihalar soni 29 taga yetib, ulardan 25 tasi hududiy ichki yo'llar ta'miri, 3 tasi sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash va 1 donasi ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bilan bog'liq loyihalar bo'lib, mos ravishda 30690000000 so'm, 3100000000 so'm va 1000000000 so'm miqdorda moliyalashtirilgan.

Quyidagi 3-jadvalda Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalarini ko'rib chiqamiz:

3-jadval³

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari

(ming so'mda)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar		12 815 372	14 558 000
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari		1 054 683	1 857 854
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga asosan		3 497 000	13 680 000
Iqtisod qilingan mablag'lar		644 711	1 470 952
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	2 653 000	4 015 088	3 582 300

³ <https://openbudget.uz/api/v2/info/file/fa65470d059273abf8e65a38c738705c>

Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	426 000	1 400 000	1 618 300
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	2 227 000	2 615 088	1 964 000
	Iqtisod qilingan mablag'lar			
Jami ajratiladigan mablag'lar		2 653 000	22 026 854	35 149 106

Izoh: Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi” mablag’larining “Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar” qismi ilk marta 2022-yilda tashkil topganini va 2023-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 13122252000 so`mga oshganini ko`rishimiz mumkin. Shuningdek, 2022-yildan “Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari” va “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga asosan mablag'lar” kabi manbalar ham “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi” ga qo`shila boshlagan.

“Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi” ning “Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 foiz miqdorida ajratiladigan mablag'lar” qismi 2021-yilda jami 2653000000 so`mni tashkil etgan. 2022-yilda esa bu ko`rsatkich 4015088000 so`mga yetib, 1,51 martaga o`sgan. 2023-yilga kelib ushbu manba ulushi 3582300000 so`mlik ko`rsatkich bilan pasayganing guvohi bo`lishimiz mumkin. Mablag'larning shakllanish manbalarini yillar misolida tahlil qildik va Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibini, to`plangan ovozlar va sarflangan mablag'lar miqdorini 4-jadval orqali ko`rsatib berishga harakat qildik.

4-jadval⁴

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi

(ming so`mda)

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to`plagan ovozlar soni	Shu jumladan			Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori
			onlayn ovozlar	oflayn ovozlar	SMS orqali ovozlar	

⁴ <https://openbudget.uz/api/v2/info/file/fd933871723e0e2bffe3c90613da1dda>

2021-yilda						
1.	“Dustlik-diyori” MFY Dustlik qishlog'ida ichimlik suvi chiqarish va 3 takuchaga chiqarish	2 649	43	0	2 606	400 000
2.	“G'allachi” MFY qarashli ichki yo'lni asfalt qilish	2 368	323	0	2 045	450 000
3.	Saxovat va Kumak jamgarmasiga mablag ajratish	1 658	2	0	1 656	750 000
2022-yilda						
1.	Chiroqchi tuman G'allachi MFY Kulchiyal qishlog'idan Yuraktepa qabristonigacha bo'lgan 2.5 km yo'lni 4.5 metr ennilikda yo'lni asfalt qilish	7 575	67	0	7 508	995 000
2.	Chiroqchi tuman Qirg'iz MFY hududidagi 350 dona sim yog'och va oraliq elektr uzatish simlarini	7 201	34	0	7 167	952 000

	hamda 8 dona transformatorni almashtirish					
3.	Qizilchorva MFY Dona qishlog'i katta yuldan kirish qismidan (Qalandarxon eshon boboni uyini oldidan) 1.5 km tosh yulni asfalt qilish, eni 4.5 metr	6 100	12	0	6 088	700 000
4.	Dodiq MFY Dodiq qishlog'idan Shakarbuloq MFY gacha 2.4 km va Dodiq MFYdan Navruz MFY tomonga qarab 0.6 km hammasi bo'lib 3 km yulni 4.5 metr ennilikda asfalt yul qilish	5 128	64	0	5 064	1 050 000
5.	Chiroqchi tuman Jar MFY Qurultoy qishlog'ini Qizilchovra qishlog'idan kelish tarafdin 3 km yulni asfaltlash kerak	3 568	5	0	3 563	1 075 000

6.	Do'stlik-diyori MFY Jar qishlog'i Dodiq MFYga ketadigan Chiroqchi-Shahrisabz yo'lini 1.5 km. Bundan tashqari Do'stlik-diyori MFY dan 38 maktabgacha 1.5 km yul. Jami 3.0 km yulni asfalt qoplamasi yotqizish kerak	3 077	7	0	3 070	950 000
7.	Taloqtepa MFY Taloqtepa-Moylijar qishloqlari hududidan utuvchi 6 km asfalt yulni yamajni ta'mirlash, yulni eni 5 metr	2 667	28	0	2 639	800 000
8.	Jar MFY Jar 4-kucha kirish qismini 2.5 km yulni tosh yulni asfalt qilish	2 614	14	0	2 600	980 000
9.	Chiroqchi tuman Mustaqillik MFY hududi	2 493	76	0	2 417	980 000

	35-maktabdan Qirg'iz MFY binosigacha piyodalar va velosaped yulakchasi hamda yoritish chiroqlari o'rnatish					
10.	Chiroqchi tumani markazida joylashgan Kishmishtepa MFY Kunchiqar ko'chasida asosiy muommo bo'lib turgan 2 km 200 metr ichki yo'llarni asfalt qilish	2 475	87	0	2 388	990 000
11.	Boshqa tashabbuslar:	56 410	118	0	56 292	10 697 000
2023-yilda						
1.	“Soxil” MFY da yashovchi fuqarolar uchun ta'mir talab bo'lgan uzunligi 2,5 km eni 4,5 metr yo'lni asfalt qilish	14 421	0	0	14 421	1 200 000
2.	“Yangiqurilish” MFY hududida yashovchi	14 188	0	0	14 188	970 000

	(Ovla domlani uyidan Chori fermerni uyigacha) fuqarolar uchun 1,5 km yo'lni asfalt qilish					
3.	“Jar” MFY 2-ko'chasini eni 4,5 metr bo'yi 2,4 km tosh ko'chalarga asfalt qoplamasini yotqizish.	14 177	0	0	14 177	1 200 000
4.	“Jar” MFY Jar 4-ko'chasi ichki yo'llarida yashovchi fuqarolar uchun 2,5 km (Oltiyev Kamolni uyidan Shomurodov Olimni uyini oldigacha) yo'lni asfalt qilish	13 865	0	0	13 865	1 200 000
5.	“Do'stlik-diyori” MFY Do'stlik qishlog'I (katta asfalt yo'ldan ya'ni Aliyev Bekzodni uyini oldidan Egamberfiyev Qurbonni uyini	13 366	0	0	13 366	1 200 000

	oldigacha) dagi 2,0 km eni 4,5 metr ichki tosh yo'lga asfalt yotqizish.					
6.	Tumandagi "G'allachi" MFY G'allachi qishlog'I hududidagi 2300 metr uzunlikdagi yo'lni 4,5 metr ennilikda asfalt qoplamasi yotqizish.	13 327	0	0	13 327	1 200 000
7.	"Chorshanba" MFY hududidagi 32-sonli umumta'lim maktabi yon va orqa tomonidan 2400 metr yo'lga asfalt qoplamasi yotqizish.	13320	0	0	13 320	1 200 000
8.	"Langar" MFY Tulaqul qishlog'i Tulaqul ko'chasini 2km (Xasanov Abdumajidning uyidan Jo'rayev Azamatning uyigacha)	13 300	0	0	13 300	1 200 000

	yo'lni asfalt qilish					
9.	“Mirzatup” MFY Past Sariqamish qishlog'i 64-sonli umumta'lim maktabga borish yo'lini 2,2 km eni 4,5 metriga asfalt yotqizish.	12 468	0	0	12 468	1 200 000
10.	“Dodiq” MFY Dodiq qishlog'idan Qorakamar qishlog'iga kiruvchi jami bo'lib 2,5 km yo'lni ta'mirlab 4,5 metr eniligidagi asfalt yo'l qilish.	12 235	0	0	12 235	1 200 000
11.	Boshqa tashabbuslar:	166 973	0	0	166 973	89 020 000

Izoh: 2021-yilda Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida “Tashabbusli budjet”da ishtirok etgan va g'olib deb topilgan loyihalarning soni jami 3 ta bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 20 talik ko'rsatkich bilan keskin ko'paygan. 2023-yilga kelib jarayonda ishtirok etgan va g'olib deb topilgan loyihalar soni 29 taga yetgan.

G'olib deb topilgan loyihalarning asosiy qismi, hususan, 2021-yilda 1 ta, 2022-yilda 17 ta va 2023-yilda 25 ta loyiha “Hududiy ichki yo'llar ta'miri” bilan bog'liq loyihalar bo'lib, mazkur hududda aholining hududiy ichki yo'llar bilan bog'liq muammolari ko'p ekanligini ifodalaydi.

Ovozlar yig'ish jarayonida 2021-2022 yillarda onlayn va sms orqali ovoz yig'ish amaliyotlaridan foydalanilgan bo'lib, ovozlarning 90% ga yaqini sms orqali yig'ib borilgan.

2023-yilga kelib ovozlar yig'ishda ovoz berishning onlayn usulidan voz kechilib, faqat sms orqali ovoz berish ta'sis etilgan. Bunda fuqarolarning xohish – ehtiyojlari va berilayotgan ovozlarning haqqoniyligi prinsiplari inobatga olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Хайдаров НХ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo 'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
- 10.У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
- 11.У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
- 12.Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
- 13.УУ О'роқов, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
- 14.Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
- 15.Ўроқов У. Файбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Vaktria press. 2016.
- 16.Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
- 17.Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020

18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).